

MUQADDAS KITOBLARDA VA HADISLARDA NAFS TALQININING O`ZIGA XOS XUSUSIYATI

Muhabbat Jo’rayeva

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

mux711@gmail.com

Annotsiya: Ushbu maqolada nafs talqini va uni muqaddas kitoblarda va hadislarda tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Mufasssirlar inson o‘z nafsini yaxshilab tanib olishi uchun Qur’oni karimda bevosita u bilan bog‘liq yuzta va unga ma’nodosh bir yuz to‘qson beshta oyat kelganini alohida ta’kidlaydilar. Nafsning mohiyatini bir so‘z bilan ifodalash ancha qiyin bo‘lsa-da, ulamolar nafs – insonning ham moddiy borlig‘ini, ham unda boru, lekin ko‘rinmaydigan yaxshi-yomonlikni xohlovchi ma’naviy borlig‘ini ifoda etadi, deyishadi. Tasavvuf ahli nafsni faqat yomonlikka buyuruvchi deb ham nomlashgan. Ko‘proq shu ma’noda ishlatilgani bois, insonni Alloh nazdida komil inson bo‘lishi uchun eng asosiy qarshilik ko‘rsatuvchi omil, aynan nafs ekanligi aytilgan.

Kalit so‘z: tasavvuf, nafs, Qur’oni karim, shayton, fano, oshiq, hadis, qanoat, komillk, jasad, jon.

Annotation: This article discusses the interpretation of nafs and its educational significance in holy books and hadiths. Commentators emphasize that in order for a person to get to know his soul better, there are one hundred and ninety-five verses directly related to it in the Holy Qur’an. Although it is very difficult to express the essence of nafs in one word, scholars say that nafs represents both the material existence of a person and the spiritual existence of a person who wants good and bad things that are visible but not visible. People of Sufism also called nafs as the one who commands only evil. Because it is used more in this sense, it is said that the most important factor that prevents a person from becoming a perfect person in the eyes of God is the ego.

Key words: Sufism, soul, Holy Qur’an, devil, death, lover, hadith, satisfaction, perfection, body, soul.

Аннотация: В данной статье рассматривается толкование нафса и его воспитательное значение в священных книгах и хадисах. Комментаторы подчеркивают, что для того, чтобы человек лучше узнал свою душу, в Священном Коране есть сто девяносто пять аятов, непосредственно связанных с ней. Хотя очень сложно выразить суть нафса одним словом, учёные говорят, что нафс представляет собой как материальное существование человека, так и духовное существование человека, желающего хороших и плохих вещей, видимых, но не видимых. Люди суфизма также называли нафса тем, кто повелевает только злом. Поскольку оно используется больше в этом смысле, говорят, что самым важным фактором, который мешает человеку стать совершенным человеком в глазах Бога, является эго.

Ключевые слова: Суфизм, душа, Священный Коран, дьявол, смерть, возлюбленный, хадис, удовлетворение, совершенство, тело, душа.

Adabiyotning asosiy vazifasi tarbiya quroli ekanligi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, “koinot gultoji” bo‘lgan insonni ezgu ideallar ruhida kamol toptirish badiiy adabiyot zimmasida turadi. Ma’lumki, ko‘p asrlik badiiy tafakkur tarixida didaktik yo‘nalish muhim o‘rin tutadi. Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u-bilig”

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

asaridan boshlangan bu an’ana XIX asr oxirlarigacha davom etdi. Aslida insonni kamolot sari yetaklovchi fikr-g’oyalari muqaddas Qur’oni Karim va hadislar bag’rida yashab keladi. Adabiyot hamma davrlarda ana shu ikki chashmadan suv ichgan. Jumladan, tasavvuf she’riyatining o’zak nuqtasida turgan nafs masalasi muqaddas kitobda o’z aksini topgan. Binobarin, nafs – insonga kamolotga etishmog’i uchun berilgan vositadir.

Nafs va uning tarbiyasi aks etgan qarashlar manbasini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Qur’oni Karim oyatlari.
2. Hadislar.
3. Xalq og’zaki ijodi namunalari.
4. Aforizmlar.

Agar nafs berilmaganida edi, inson farishtaga o`xshab bir maqomda qolar, unda yuksalish yoki pastga tushish holatlari bo`lmas edi. Shu sababdan Alloh taolo Zariyat surasining 56-oyatida “Jin va insonni faqat Menga ibodat qilish uchungina yaratdim”¹ deydi. Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hadisi shariflaridan birida Yusuf alayhissalom nafs haqida shunday dedi: «O`zimni (nafsim)ni oqlamayman. Albatta, nafs, agar Robbim rahm qilmasa, yomonlikka undovchidir» (Yusuf surasi, 53-oyat)². Ko`rinadiki, nafs chegaradan ortsa, yomonlikka boshlaydi. Allohning mana shu payg`ambari tilidan aytilgan «Men nafsimni oqlamayman, agar Robbim menga yordam bermasa, men uni tarbiya qilishga ojizman», degan so`zi nafsning inson hayotidagi o`rni, mavqeini, insoniylikning asosini namoyon etadi. Yusuf alayhissalom Allohning buyuk payg`ambari, u zotning bu so`zlari boshqa ummatlar uchun aytilgan tanbeh edi. Demak, inson nafs doimiy tarbiya qilinishi kerak. Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallam barcha yomonliklarning boshi tarbiya topmagan nafs bo`lgan kabi barcha yaxshiliklarning debochasi ham nafs ekanini bot-bot ummatlariga tushuntirib berganlar. Bu borada shaxsan o`zlari namuna ko`rsatdilar. Nafsning har bir ko`rinishi, daraja-yu maqomlari, uning yomon sifatlari haqida sahobalarini ogohlantirib, o`z hayotlari misolida ko`rsatib berganlar. Islom adabiyotlarida nafsga quyidagicha ta`rif berilgan: «Nafs» arabcha so`z bo`lib, unga ruh, biror narsaning o`zi, aql, jasad, qon, orzu va yomon istaklar kabi ma`nolar berilgan. Tasavvufiy istilohda esa o`zida his va hayot quvvati bo`lgan latif oquvchi javhar deb aytiladi. Islom ulamolarining ko`pi ruh va nafsni bir-biridan farqli deb

¹ Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nalari tarjimalari (“Moida” surasi 30-oyat) 71-b

² Bu va boshqa barcha oyatlarga keltirilgan izohlarda “Tafsir”dan foydalanildi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

aytishgan³. Hazrat mir Alisher Navoiy esa nafsqa quydagicha tavsif beradilar: “1. Shaxs, vujud, gavda, tan. Kishida turli maishiy orzu-havasga boʻlgan tabiiy mayl, istak”⁴”. Tasavvuf ahli nafsni faqat yomonlikka buyuruvchi deb ham nomlashgan. Ko‘proq shu ma’noda ishlatilgani bois, insonni Alloh nazdida komil inson bo‘lishi uchun eng asosiy qarshilik ko‘rsatuvchi omil, aynan nafs ekanligi aytilgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida: “Nafs (arabcha nafs-qalb, ko‘ngil; inson; maqsad, intilish; g‘urur, mag‘rurlik)

1. Yeyish-ichishga, mol-dunyoga bo‘lgan ehtiros. Mening nafsim balodur, yongan o‘tga soladir. Maqol.

2. Nafs bandasi nafsidan boshqani o‘ylamaydigan.

3. Nafsi buzuq (yoki yomon) Ovqatdan sira qaytmaydigan, nafsini tiya olmaydigan; hirsli. Nafsi buzuq hayitda o‘lar. Maqol.

4. Nafsi o‘lik (yoki tiyiq) Nafsini tiya oladigan, har narsaga suq bilan qarayvermaydigan.

5. Nafsiga o‘t tushmoq Nafsi haddan tashqari avj olmoq; nafs hakalak otmoq.

6. Nafsini tiymoq Nafsiga erk bermaslik, o‘zini saqlamoq. Ko‘zing og‘risa. Qo‘lingni tiy, iching og‘risa, nafsingni tiy”⁵.

Ko‘rinadiki, nafs keng ma’noli tushuncha bo‘lib, badiiy adabiyotda ham uning obrazi shu mazmun-mohiyatdan kelib chiqib, yaratilgan.

Shayx Ahmad ibn Muhammad Abdulloh «Riyozi axloqi solihiy» asarlarida nafsning mohiyatiga bunday ta’rif beradilar: «Haqiqatda inson nafs – ilohiy sir (latifai Rabboniya) bo‘lib, uning mohiyatini to‘la anglash mumkin emas. Inson tanasiga kirib joylashguniga qadar nafs ruh yoki jon deb ataladi. Alloh irodasi bilan ruh tan bilan birlashadi, keyin mosuvalloh (Allohdan boshqa narsalar) ni taniydi va shu bilan Parvardigoridan boshqaga chalg‘iydi. Shunda Alloh va nafs o‘rtasida nafsni Yaratuvchidan uzoqlashtiradigan parda paydo bo‘ladi». Tasavvufshunos olim fikriga ko‘ra, nafs ilohiydir. U tanaga jon bilan birga joylashadi. Tana bilan jon birlashgach, inson deb ataluvchi g‘aroyib yaratq shakllanadi. Bilim va axloq asosini inson nafsining komil tarbiyasi tashkil etadi.

Mufasssirlar inson o‘z nafsini yaxshilab tanib olishi uchun Qur’oni karimda bevosita u bilan bog‘liq yuzta va unga ma’nodosh bir yuz to‘qson beshta oyat kelganini alohida ta’kidlaydilar. Nafsning mohiyatini bir so‘z bilan ifodalash ancha qiyin bo‘lsa-da, ulamolar nafs – insonning ham moddiy borlig‘ini, ham unda boru,

³ *Aby Xomud Fazzoluy. Mukoshaftam-ul kulub*

⁴ Navoiy asarlari lug‘ati – Toshkent: G‘ G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972. – B.454

⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati – T: O‘zbekiston milliy ensiklopediasi. 2007. 3-jild. – B.26.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

lekin ko‘rinmaydigan yaxshi-yomonlikni xohlovchi ma’naviy borlig‘ini ifoda etadi, deyishadi. Ko‘rinadiki, tasavvufda nafs insonning moddiy va ma’naviy hayotini belgilovchi jihat ekanligi ko‘rsatilgan. Qur’oni Karimda nafs haqidagi oyatlarning mazmun-mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz: «Va malomatchi nafs bilan qasam» (Qiyomat surasi, 2-oyat). Bunda nafsning haddan oshishi haqidagi qarash bayon etilgan. «Ey xotirjam osuda nafs!» (Fajr surasi, 27-oyat). Mazkur oyatda nafsning darajasi aniq ifoda etilgan. Ya’ni me’yordagi nafsni insonni osuda, xotirjam etadi. «Albatta, insonni Biz yaratganmiz va uning nafsni nimani vasvasa qilishini ham bilurmiz» (Qof surasi, 16-oyat)⁶. Ushbu oyatda nafsni jilovlay olmaslik natijasida uning insonni vasvasaga solishi, yomon yo‘llarga boshlashi ifoda etilgan. Zero, yomonlikka buyuruvchi nafs insonning eng katta dushmanidir.

Qur’oni Karimdagi g‘oyalar undan keyingi muqaddas kitob “Hadis”larda yana rivojlantirilgan. Binobarin, Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar: «Odam farzandining hamma narsasi qariydi, faqat hirs va amallari qarimaydi» (Muslim rivoyat qilgan). Bunda hirs jilovlanmagan, me’yordan ortiq bo‘lgan nafsga sinonim sifatida kelgan. Yoki Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Mol-dunyosi ko‘p odam boy emas, balki nafsni to‘q odam boydir», dedilar» (Buxoriy rivoyat qilgan). Shuning uchun xalq orasida “ko‘zi to‘q” degan ibora yuradi. Bu ham umrni boylikdan emas, nafsni to‘qlikdan iboratligini o‘zida ifoda etadi.

Huzayfa roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Hech qachon sizlardan birortasi beqaror bo‘lib: “Men odamlar bilan tengman, agar odamlar yaxshilik qilsa men ham yaxshilik qilaman, yomonlik qilsa men ham yomonlik qilaman” deb aytmasin. Akchinsa, nafsingizni sobit tuting, xalq yaxshilik qilsa siz ham yaxshilik qiling, yomonlik qilsa zulmga yo‘l bermang», deb marhamat qildilar» (Termiziy «Birr», 63). Ko‘rinib turibdiki, hadisi shariflarda ham nafsning mohiyati hayotiy asoslab berilgan.

Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilovning fikricha: “Tasavvufchilar inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan «nafs» yoki «nafsni ammora» deb atadilar va unga qarshi urush e‘lon qildilar. Mol-dunyo to‘plash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, hirsu havas qat’iy qoralandi, insonni (demakki, insoniyatni ham) noqislik va falokatlardan qutqarishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li – nafsni o‘ldirib, qanoat bilan halol yashash, ruh – irodani chiniqtira borib, insonda insoniylikni, ya’ni ilohiylikni

⁶ Bu va boshqa barcha oyatlarga keltirilgan izohlarda “Tafsir”dan foydalanildi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

tantana ettirish zarur, deb targ’ib qilindi”⁷. Ushbu fikrlar ulug’ shayxlarning «tasavvuf» tushunchasiga bergan ta’rif-izohlarida aniq ifodalangan. «Tasavvuf nima?» degan savolga Shayx Nuriy javob berib aytadi: «Tasavvuf – nafs lazzatlaridan voz kechishdir». Yoki Shayx Safiy Alimshoh yozadi: «Tasavvuf – nafs manzillarini bosib o’tishdir». Shayx Ravim so’zi: «Tasavvuf – Xudo yo’lida nafsdan kechmoqdir»

Nafs insonda bir nechta yomon xulqlarga yo’l ochadi. Jumladan insonni xudbin, xudparast qilib qo’yadi. Nafsga berilgan kishi hech narsadan tap toptmaydi, xarom-xarishdan hazar qilmaydi. Natijada u zolim, berahm, riyokor bo’lib qoladi. Shuning uchun tasavvufda o’zni tiyish, qanoat, sabr nafsga teskari qo’yiladi: «Hamma narsa ravo» falsafasi odamni iymonu e’tiqoddan ayirib, yulg’ichlik va talon-tarojga fatvo beradi, vahshiylik instinktini kuchaytiradi⁸. Hakim Termiziy: “Bir shaytonning bir soat ichida halok aylaganini yuz och arslon bir suruv qo’y ichida halok aylay olmas. Nafsning bir soat ichida qilgan ishini ham yuz shayton qila olmas. Demak, shayton yuzta och arslondan ham dahshatli ekan. Nafs esa yuzta shaytondan ham xavfliroqdir”⁹. Ko’rinadiki, Termiziy nafsni shaytondan ham kuchli deb hisoblaydi. Shayx Abu Bakr Abu Barrok yozadi: “To’rt dushman bordir va ulardan qutilmoqning tort yo’li bordir: shayton, nafs, dunyo sevgisi, xalqqa aralashmoq. Shayton va nafsga muxolifat, (qarshilik) etmoq kerak, dunyodan cheklanmoq, xalqdan ham qochmoq kerak. Kishi bu to’rt yordamchi bilan qutulgaydir, yo’qsa halok bulur”. Bunda insoning to’rtta dushmani qatorida nafs ham ko’rsatiladi. To’rtinchi dushman xalq deyilganda esa nafs bandalari nazarda tutiladi. Xoja Bahouddin: “O’z nafsining yomonligini tanish o’zligini tanishdir». Bu fikrlar Shayx Najmiddin Kubroning: «Tasavvuf – nafs lazzatlaridan voz kechishdir», Shayx Safiy Alimshohning: «Tasavvuf nafs manzillarini bosib o’tishdir», Shayx Raqimning: «Tasavvuf – Xudo yo’lida nafsdan kechmoqdir», So’fiy shoir Bobo Tohirning: «Tasavvuf – nafsoniy-hayvoniy hayotda o’lmoq va insoniy hayotda yashamoq» degan qarashlar bilan uyg’undir.

Xullas, tassavvufda nafs buzuqligi, ochko’zlik, xudbinlik har tomonlama qoralangan.

Professor A.Hayitmetovning ta’kidlashicha, “tasavvuf vakillarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida insonning jonni tanadan qutqarishi g’oyasi nafsni tiyishni

⁷ Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounahr. O’zbekiston. 2009. – B.245.

⁸ Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounahr. O’zbekiston. 2009. – B.245.

⁹ Xislatli hikmatlar sharhi 2-kitob.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.”Hilol nashr”.Toshkent 2019.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

yoqlashga asos bo’lgan”¹⁰. Binobarin, olim tasavvufiy nuqtai nazardan nafsni tiyish jonni tanadan qutqarish deb hisoblaydi.

Hasan Basriy rahmatullohu alayh aytadilar: «Nafsiga nasihat qilib yurgan va o’zini tergap turish odati bo’lgan banda doimo yaxshilikda bardavom bo’ladi”. Ya’ni nafsqa nasihat qilish degani uni tiyish, turli hoju havaslardan qutqarishdi. Qur’oni karimda nafs uch xil sifat bilan kelgan: xotirjam nafs – Rabbisining toati va amrlariga sokin, uning muhabbati va bandaligiga xotirjam bo’lgan nafsdur. Malomatchi nafs – qo’ldan boy berilgan yaxshilik va savoblar uchun egasini malomat qiluvchi nafs. Yomonlikka buyuruvchi nafs – egasini shahvatlar va botil narsalarga undovchi nafs. Darhaqiqat, nafs johil bo’lib, tarbiya va poklash natijasida Alloh taoloning inoyati bilan xotirjam nafsqa aylanadi. Nafsni poklash natijasida inson ikki dunyo saodati, qalb xotirjamligi hamda din va toat-ibodatda sobitlikka erishadi.

Demak, nafs haqidagi qarashlar Qur’oni Karim oyatlari, muborak hadislar, xalq maqollari va hikmatlarda ifoda etilgan. Qur’oni Karimda nafsni jilovlay olmaslik insonni vasvasaga solishi, yomon yo’llarga boshlashi, yomonlikka buyuruvchi ekanligi aks etgan. Hadislarda esa bu fikrlar rivojlantirilib, nafsqa sinonim sifatida hirs keltirilgan. Xalq maqollarida esa nafs ochko’zlik sifati orqali berilgan. Nafsni ifoda etuvchi timsollar (ulton, qush, vali) yaratilgan. Hikmatlar ham tasavvufiy mazmun bilan sug’orilgan. Ularda nafs bo’ri, tuyaqush kabi obrazlarda yuzaga chiqqan. Tasavvufda qo’l, ko’z va dil nafsni ajratilgan. Ko’p yemoq, ko’p uxlamok, ko’p kulmoq, oshiqlik qissalarini tinglamok, dunyoni sevmoq, boylikni tanlamok, takabburlik, hasad, g’iybat kabilarda ham nafs aks etadi. Tasavvuf va diniy ta’limotga ko’ra, har narsani bilguvchi, bildirguvchi, yo’lga soluvchi, yo’ldan ozdirguvchi ham, foydaga ham, zararga ham yetishtirguvchi, beruvchi va oluvchi ham Ollohdur. Inson bu dunyoda ko’ngilni Ollohga bag’ishlab to’g’ri yo’ldan yursa kifoya. Komillik amallarining roya qilsa, komillik amallariga yo’l ochguvchi ham Ollohning o’zidir. Ammo bu amallarni bajarish insondan bo’lgani bois ham qaysi yo’ldan yurmoqlik uning ixtiyoridadir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimalari. www.ziyouz.com. –483b
2. Adabiyot nazariyasi. II jildlik (2-jild). –Toshkent: Fan, 1979. –449b
3. Hozirgi o’zbek adabiyotining milliy o’ziga xosligi. – T.: Fan, 1984. – 200b
4. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she’riyat. –T.: G’afur G’lom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi. 1991.–184b
5. Kenjabek Mirzo. Oshiq Mashrab va Tasavvuf olami. – .:“Navro’z”, 2019. – 88b
6. Komilov Najmiddin. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr”– “O’zbekiston”, 2009. –447b

¹⁰ Ramazon Bobokalonov “Nafsqa qarshi -isyon” Ilmiy-ommabop risola -13B